

YO'L BELGILARI VA ULARNING FARQLARI

Yunusov Ibrohimjon Nishanovich*Fargona viloyati Quva tuman kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi.*

Annotatsiya: YO'l belgilari katta tezlikda kelayotgan haydovchilar va velosipedchilarni yo'li kesishmasiga yaqinlashib qolganliklari to'g'risida ogohlantiriladi hamda chorrahalardan, kesishmalardan yo'llarning ayrim qismlari va tor joylaridan tartib bilan o'tishni ta'minlashda asosiy vosita xisoblanadi.

Kalit so'zlar: yo'l belgilari, «bosh yo'l» belgisi, transport vositalari, «yo'l bering» belgisi, haydovchilar.

Imtiyoz belgilari

Ko'chalar va yo'llarda transport vositalari harakati uzlucksizligi doimiy olib borayotgan sharoitlarda ular oqimini aniq tashkil etish katta ahamiyatga egadir.

Svetoforlar yonib turgan chorrahalarda haydovchilarning o'zлari uni ilg'ab olishadi va harakat tezligini kamaytirishadi. Katta tezlikda kelayotgan haydovchilar va velosipedchilarni yo'li kesishmasiga yaqinlashib qolganliklari to'g'risida qanday ogohlantiriladi hamda chorrahalardan, kesishmalardan yo'llarning ayrim qismlari va tor joylaridan tartib bilan o'tishni qanday ogohlantirish mumkin?

Buning uchun chorrahalar va yo'l kesishmalarining ayrim oraliq masofalarida ko'rsatkich belgilar o'rnatiladi. Bosh va ikkinchi darajali ko'chalar hamda yollar mavjud. Yo'l belgilari ularning farqlarini anglatib turadi. Bundan tashqari qoplamasiz (qattiq) yolga taalluqli har qanday qoplamlami yo'l bosh yo'l hisoblanadi.

«Bosh yo'l» belgisi

Bu belgi oldinda transport vositalari harakatlanayotgan bosh yol borligini bildiradi.

Yon ko'chadan ana shu yo'lga chiqib kelayotgan haydovchilar, shuningdek, velosipedchilar bosh yo'lda kelayotganlarni otkazib yuborishlari kerak. Bosh yo'l tugagan oxirgi joyda «Bosh yo'lning tugashi» belgisi qo'yiladi.

«YO'l bering» belgisi

Bu belgi sakkiz qirrali shaklda, qizil rangga bo'yalgan bo'liadi. U tinimsiz harakatdagi ko'chalar va yo'llar chorrahalari oldiga o'rnatiladi. Avtomobillar haydovchilari va velosipedchilar bu belgini ko'rganda, to'xtashlari va kesishma yo'nalishdagi transport vositasini o'tkazib yuborishlari kerak.

Ko'rib chiqilgan keng tarqalgan to'rt buyuruvchi belgidan tashqari «Ikkinchi darajali yo'l bilan kesishuv», o'ngdan yoki chapdan «Ikkinchi darajali yo'l tutashuvi» belgilari ham bor.

«To‘xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi» belgisi

Haydovchi bu belgini ko‘rgach, yo‘l kesishmasi bo‘ylab harakatlanayotgan transport vositasiga yo‘lni bo‘shatib berishi kerak.

Taqiqlovchi belgilar «piyodalarining harakatlanishi taqiqlangan » belgisi

Bu belgi piyodalarining harakatlanishini taqiqlaydi. Qoidaga ko‘ra, bu belgilar yo‘lni ta’mirlash ishlari ketayotgan, qurilish maydonlari atroflariga, qisqasi piyodalar uchun xavfli hisoblangan joylarga o‘rnatalidi.

«Velosipedda harakatlanishi taqiqlanadi» belgisi

Ko‘chalar va yo‘lla rda , ana shu belgi o‘rnatalgan joylarda velosipedda yurish taqiqlanadi. Odatda katta transport harakati gavjum ko‘chalar va yo‘llarga «Velosipedda yurish taqiqlanadi» belgisi qo ‘yiladi.

«Harakat taqiqlanadi» belgisi

Shunday ko‘chalar va yo‘llar bo‘laklari ham borki, ularda har ikki yo‘nalishda transport vositalarining harakatlanishi mumkin emas. Bu haqda avtomobil haydovchisi yoki velosipedchini «Harakat taqiqlanadi» belgisi ogohlantiradi. Belgi ko‘cha va yo‘l bolagining har ikki tomoniga o‘rnataladi. Uni ko‘rgan haydovchi hududni aylanib oladi. Belgi ostida strelka tasvirlangan qo‘sishmcha ko‘rsatkich ham o‘rnatalgan bolishi mumkin. Strelka h arakat yo ‘nalishi belgisini anglatadi.

Bu belgi harakati jamoat transportiga (tramvay, avtobus) tatbiq etilmaydi. Jamoat transporti haydovchilari ana shundan o‘ta ehtiyyotkorlik bilan o‘tib ketadilar.

«Kirish taqiqlanadi» belgisi

Ko‘chalarda oq kesishgan qizil doirali belgini uchratish mumkin. Mashina haydovchilari va velosipedchilarining ana shu belgi o‘rnatalgan ko‘cha yoki yo‘l bo‘lagiga kirishi mumkin emas. Odatda bunday belgilar bir tomonlama harakatdagi ko‘chalar boshiga qo‘yiladi. Shu sababli «Kirish taqiqlanadi» belgisi o‘rnatalgan ko‘chaga qarama-qarshi tomonidan yoki unga yondosh tor ko‘cha orqali kirish mumkin. Bu belgi amaliyoti ana shu ko‘chadan yo‘nalishi o‘tgan jamoat transportiga tatbiq etilmaydi. «Kirish taqiqlanadi», «Harakatlanish taqiqlanadi» yoki «Velosipedda yurish taqiqlanadi» belgisini ko‘rgan velosipedchi darhol velosipeddan tushib, uni qolida yetaklaganicha trotuarga o‘tib olishi, «Yo‘l harakati qoidalari»da ko‘rsatilganidek, harakatlanishi lozim.

«Chapga burilish taqiqlanadi», «0‘ngga burilish taqiqlanadi» belgilari

Ba’zan chorrahalarda chap yoki o ‘ngtomonga qizil chiziq tortilgan, qayrilgan qora strelka belgisini uchratish mumkin. Bunday belgilar avtomobil haydovchilari va velosipedchilarga strelka qaratilgan tomonga yo chapga yoki o‘ng tomonga burilish mumkin emasligini anglatadi. Dafatan, «Chapga burilish taqiqlanadi» belgisi haydovchilarga orqaga qayrilishni taqiqlamaydi. Qoidaga ko‘ra, bu belgilar yondosh qatnovlarda harakat faqat bir tomoniga, ya’ni ko‘cha bir tomonlama harakatdan iborat ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YATI

1. ShNQ 2.07.01-03 "Shahar qurilishi. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurishni rejalashtirish "Toshkent, 2019 yil, ko'cha 170-uy.
2. MShN 25÷2005 "Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yo'riqnomalar". Toshkent 2015 g.C 302.
3. Azizov Q.X., Darabov M., Sayfutdinova R.A. "Shahar ko'chalarida harakat xavfsizligini ta'minlash" - T.: TADI, 2011.
4. Azizov K.X. "Yo'l harakati xavfsizligini tashkil etish asoslari: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik" T.: "Fan va texnologiya", 2012. 262 b.